

PEDAGOG- PSIXOLOGLARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna

Nizomiy nomidagi toshkent davlat pedagogika universitetining "Umumiy tilshunoslik" kafedrasi oqituvchisi

Keldiyeva Ruhshona

Nizomiy nomidagi toshkent davlat pedagogika universiteti Tillar fakulteti o'zga tillar guruhida rus tili 1-kurs 103- RN talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada nutq madaniyatini shakllantirish, pedagog va psixologlarning nutqiy madaniyatini rivojlanirish bo'yicha zamonaviy usullar ko'rib chiqilgan. Til me'yorlari - bu ijtimoiy -nutqiy amaliyot (badiiy adabiyot, o'qimishli kishilar nutqi, sahna nutqi, radio va h.k.)da umum tomonidan qabul qilingan talaffuz, grammatika va so'z qo'llash qoidalaridir. Ammo yuksak nutq madaniyati faqatgina til me'yorlariga amal qilishdangina iborat emas.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, me'yor, ta'sirchanlik, mantiqiylik, metodika.

Abstract: this article examines modern methods of formation of speech culture, development of speech culture of pedagogues and psychologists. Language norms are generally accepted rules of pronunciation, grammar and vocabulary in social and speech practice (fiction, speech of educated people, stage speech, radio, etc.). But high speech culture is not only about following language norms.

Key words: speech culture, standard, effectiveness, rationality, methodology.

Аннотация: в данной статье рассматриваются современные методы формирования культуры речи, развития речевой культуры педагогов и психологов. Языковые нормы — это общепринятые правила произношения, грамматики и лексики в общественной и речевой практике (художественная литература, речь образованных людей, сценическая речь, радио и т. д.). Но высокая речевая культура — это не только соблюдение языковых норм.

Ключевые слова: культура речи, стандарт, эффективность, рациональность, методика.

Ma'lumki, har qanday jamityaning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida

turgan umum davlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo'lib, o'z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga ko'ra yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri xisoblanadi. Bu vazifalarni esa asosan xalq ta'limi tizimidagi muassasalar va bu muassasalarda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar bajara oladi.

Shunday ekan, o'qituvchi, umuman pedagog-psixologlar qanday pedagogik - psixologik tayyorgarlikka, pedagogik bilimlarga, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat va fazilatlarga, qanday nutqq ega bo'lishi kerak? degan savol tug'iladi. Bu savolga njutqiy madaniyat metodikasini rivojlantirish orqali yechim topishimiz mumkin.

O'quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o'z ta'lim beruvchilari bilan muloqat olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa u gapirishni bilishi zarur. Gapirishni, nutqiy madaniyatini shakllantira bilishi kerak. Xar bir ta'lim olayotgan yosh pedagog-psixologlar jamoa bilan, o'quvchi guruuhlarining ayrim o'quvchilari bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman butun ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi kerak. O'quvchilar bilan gaplasha olish (har qanday shaklda) muayyan qoidalarni bilishni va bu qoidalarni amalga oshirishning nazarda tutadi.

O'quvchilarning pedagoglarga nisbatan eng ko'p tarqalgan shikoyatlaridan biri: "Ular bizning gapimizga e'tibor bermaydilar!" degan gapidir. Tabiiyki, o'z suhbatdoshing gapiga qulq solmasang, u bilan muloqot qilish mumkin emas, samarali muomala qilib bo'lmaydi. Shu sababli pedagog bu bilimni egallay olishi nihoyatda zarurdir. Birovning gapini eshita olish qobiliyati va mahorati inson tabiatining boshqa ko'pgina qimmatli sifatlariga qaraganda ancha kamroq uchraydi. Shu sababli birovning gapini tinglay oladigan, binobarin, odatda tushuna oladigan kishilar ancha qadrlanadi. Bu ham o'z navbatida pedagogning nutq madaniyatini qay darajada rivojlanganligida namoyon bo'ladi.

Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining o'ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko'rinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala so'zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o'z ichiga oladi, ular orqali voqelikka aylanadi, ta'sir qilish quvvatiga ega bo'ladi. Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjud. Bu tushuncha muayyan lisoniy me'yorlar, etik va estetik talablar bilan aloqador

bo‘lgan tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va millat ma’naviyatini belgilovchi (ko‘rsatuvchi) etik va estetik hodisadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me’yorlashga (uni qayta ishlash va boyitishga) qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko‘tarish, odamlarda ma’lum «til didi»ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati termini tilshunoslikda uch xil hodisani ifoda etadi:

- 1) madaniy nutqning, ya’ni nutqiy hodisaning nomi;
- 2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog‘liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi;
- 3) nutq madaniyati muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo‘limining nomi¹

Nutq borasidagi qarashlarning jihatlari Alisher Navoiy ijodida suhbat va nutq odobi qoidalari haqida to’liq ma’lumotlar berilgan. Navoiy so‘zning hashamadorligidan ko‘ra, haqqoniyligini ulug‘laydi. Fikring xalq uchun foydali va tushunarli bo‘lsin desang, sodda tilda gapir, deydi: “So‘zki fasohat zevaridin muzayyan emasdир, anga chinlik zevari basdur. Yolg‘onchi har necha so‘zida fasihroq, so‘zi qabihroq. Chin so‘z nechakim betakalluf, qoyilg‘i iborat soddalig‘idin yo‘q taassuf”.

Navoiy yaxshi so‘zli, el uchun foydali notiqlarga yon bosadi. Ularning xizmatini masjid imomlarining qilayotgan ishlaridan yuqori qo‘yadi. Shu tufayli ular uchun imomlarga nisbatan ancha ko‘p mablag‘ ajratishni tavsiya etadi: “Voizga yillik naqli besh yuz oltun, bug‘doy o‘n yuk. Imomg‘a masjidi jome’da xatib bo‘lib, maktabdag‘i tutg‘ay, yillik naqli ikki yuz oltun, bug‘doy o‘n yuk”.¹

Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutq madaniyati, nutq san’ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan umumlashtirilgan.

Navoiy asarlarida nutq odobining talablari haqida fikrlar bor.

1. Tilni, so‘zni qadrla, uni hurmat qil:

Donau dur so‘zini afsona bil,

So‘zni jahon bahrida durdona bil

¹ R.Rasulov,Q.Mo‘ydinov. Nutq madaniyati va notiqlik San’ati. (o‘quv qo‘llanma).T- 2011.12-bet.

(“Xamsa”, 34-bet)²

O’qituvchi nutqi adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilishda o’quvchiga namuna bo’lishi lozim. Yozma matndagi so’zlarni harflarga ko’ra aynan o’qish ham adabiy talaffuz me’yorlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, o’qidingiz so’z shaklini yozilganday 9ta emas, 8ta tovush tarzida talaffuz qilish me’yor, ya’ni “n+g” ikki tovush emas, balki ng tarzidagi bir tovush³

Nutq madaniyatiga asoslanib, B. Abdullayeva nutqning kommunikativ fazilatlari haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi, unga murojaat qiladi:

- nutqning to’g’riliği (adabiy til me’yorlariga rioya qilish);
- nutqning aniqligi (so’zlarning belgilangan ob’ektlarga, voqelik hodisalariga qat’iy muvofiqligi);
- nutqning izchilligi (til birliklarining semantik aloqalari va voqelik ob’ektlari va hodisalarining aloqalari o’rtasidagi bog’liqlik);
- nutq sofligi (adabiy tilga yot, axloq me’yorlari tomonidan rad etilgan elementlarning yo’qligi);
- nutqning ekspressivligi (nutqda tinglovchi yoki o’quvchining diqqatini va qiziqishini qo’llab-quvvatlovchi elementlarning mavjudligi); - nutqning boyligi (ishlatiladigan nutq vositalarining xilma-xilligi);
- nutqning maqsadga muvofiqligi (til vositalarining bunday tanlanishi nutqni muloqotning maqsadi va shartlariga muvofiqlashtiradi). Odamlar o’rtasidagi muloqot ham ijtimoiy-psixologik o’zaro ta’sir, ham ma’lumot uzatish kanalidir. Biroq, mantiqiy va kontseptual ma’lumotlar almashinuviga o’tishdan oldin, nutq aloqasiga kirish kerak va buning uchun nutq odob-axloqining ma’lum normalarini bilish va to’g’ri qo’llash kerak. Shuningdek nutq madaniyati asosida nutq odob-axloqi paydo bo’ldi, unga asosan suhbatsdoshlar o’rtasida nutq aloqasini o’rnatish, tanlangan kalitda ularning ijtimoiy rollari va bir-biriga nisbatan roli pozitsiyalariga, rasmiy va norasmiy munosabatlardagi o’zaro munosabatlarga muvofiq muloqotni ta’minlash uchun jamiyat tomonidan belgilangan barqaror aloqa formulalari tizimi

² R.Rasulov,Q.Mo‘ydinov. Nutq madaniyati va notiqlik San’ati. (o’quv qo’llanma).T- 2011.101-102-bet.

³ N.Maxmudov. O’qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent-2007. 58-59-bet.

– so'zlamalaridir. Masalan, o'zbek odob-axloqining milliy o'ziga xosligi xalqimizning maqol va dostonlarida o'z ifodasini topgan⁴ To'liq, mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutq texnikasi o'qituvchining umumiy nutqiylarining eng muhim uzvi, ta'bir joiz bo'lsa, tamallaridandir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqelantirish ko'nikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish, aniq diktsiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasidagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy quroli nutq bo'lgan har qanday odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatga molikdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

- R.Rasulov,Q.Mo'ydinov. Nutq madaniyati va notiqlik San'ati. (o'quv qo'llanma).T- 2011.12-bet.
- N.Maxmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent-2007. 58-59-bet.
- Ahmadjonova N. Nutq madaniyati va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023.
- Хидиров, X. H. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой учёный, (15), 322-324.
- 5. Хидиров, X. H. (2017). Moral personality education in the philosophy of existentialism of Karl Jaspers. Молодой учёный, 30, 95.
- 6.Хидиров, X. H. (2018). Social justice and the process of education, and their mutual influence in the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi. Молодой учёный, (14), 262-263.
- 7.Kadamzhanovna, A.N.(2023). ORIENTALISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULAM (BY THE MATERIAL OF THE STORY" MISCLE"). Open Access Repository 4 (03), 63-67
- 8.Z Madraximova,Z & Ablaeva, N.(2022).CHARACTERISTICS OF LERMONTOV'S WORKS" HERO OF OUR TIME". Science and Innovation 1 (8), 1843-1845 2022
- 9.Madraximova,Z & Ablaeva, N. (2022)ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛЕРМОНТОВА" ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ".Science and innovation 1 (B8), 1843-1845 2022
- 10.Аблаева, Н.К.(2022).Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц. Ta'lif fidoyilari 6 (7), 687-691

⁴ Ahmadjonova N. Nutq madaniyati va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023.

- 11.Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ.Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1), 125-130.17.
- 12.Rasulova, Azizaxon Muydinovna, & Xusanova, Ma'Rifat Axmadjonovna (2022). POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 807-811.
- 13.Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ.Theoretical & Applied Science, (4), 252-254.
- 14.Xusanova Ma'rifat Axmadjonovna.,Asomiddinova Gulruh Alijonovna. TIL ESTETIKASIGA DOIR. Analytical Journal of Education and Development Volume: 03 Issue: 03 | Mar-2023 ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz 262-265.
- 15.Nasirov, A. N. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. Theoretical & Applied Science, (12), 568-571.
- 16.Nasirov, A. N. (2023). Alisher navoiy obrazining badiiy ifodasi. Ustozlar uchun, 15(1), 35-39.
- 17.A'zamjonovna, X. S., & Azimidin, N. (2023). ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIY KONFLIKT. Ustozlar uchun, 15(1), 72-77.
- 18.Nasirov, A. (2023). ERKIN A'ZAM IJODINING O 'ZIGA XOSLIKHLARI HAQIDA. Ustozlar uchun, 15(1), 78-84.
- 19.Nasirov, A. N. (2023). ODIL YOQUBOVNING "QAYDASAN MORIKO" QISSASIDA PESAJ VA XARAKTER TALQINI. Ustozlar uchun, 15(1), 40-47.
20. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).
21. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). BILINGVIZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
- 22.Uzoqboy o'g'li, S. M., & Nasirov, A. (2023). SA'DULLA SIYOYEVNING "DASHTI QIPCHOQ LOCHINI" ASARIDA TARIXIY SHAXS OBRAZI TALQINI. Ustozlar uchun, 15(1), 48-53.